

AVESTO-QADIMIY MA'NAVIYAT VA TAFAKKUR MANBAI

Ibrohimova Mehribon

Osiyo xalqaro universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19567669>

Annotatsiya. Ushbu ilmiy tadqiqotda, „Avesto”ning insoniyat tarixidagi o’rni, uning qadimiy ma’naviy meros sifatidagi ahamiyati hamda tafakkur taraqqiyotiga qo’shgan hissasi yoritiladi. Asarda ilgari surilgan ezgulik va yovuzlik o’rtasidagi kurash g’oyasi, axloqiy qadriyatlar, insonparvarlik, poklik va adolat kabi tamoyillar tahlil qilinadi. Shuningdek, „Avesto”ning nafaqat diniy manba, balki falsafiy va madaniy yodgorlik sifatidagi o’rni ochib berilib, uning bugungi kundagi ma’naviy tarbiya jarayonidagi ahamiyati asoslab beriladi.

Аннотация. В данном научном исследовании рассматривается роль „Авесто” в истории человечества. В работе подчеркивается ее значение как древнего наследия и вклад в развитие мѣсли. Анализируется идея борьбѣ добра и зла, моральнѣ ценности, гуманизм, чистота и справедливость. Также раскрѣвается роль Авестѣ не только как религиозного источника, но и как философского и культурного памятника, и обосновѣвается ее важность в современном процессе духовного воспитания.

Annotation. In this scientific study, the role of the „Avesta” in the history of mankind, its importance as an ancient spiritual heritage and its contribution to the development of thought are highlighted. The work analyzes the idea of the struggle between good and evil, moral values, humanism, purity, and justice. It also reveals the role of the Avesta not only as a religious source, but also as a philosophical and cultural monument, and justifies its importance in the process of spiritual education today.

Kalit so’zlar: Avesto, tarix, ma’naviyat, qadimgi.

„Avesto”-zardushtiylik dinining muqaddas kitobi, Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviy merosining eng qadimiy manbasi bo’lib, axloqiy poklik, tabiatni asrash va ezgulikni ulug’laydi. Mazkur yodgorlik insoniyat tafakkuri rivojida o’ziga xos o’rin tutib, ilm-fan, dehqonchilik va ijtimoiy munosabatlar aolarini qamrab olgan.

„Avesto”da ezgulik, yaxshilik xudosi Ahura Mazda tilidan shunday deyiladi: „Men-Ahura Mazda – yaratgan ilk sarzamin va birlamchi yurt bu Doityo (Amu) daryosi sohilidagi xushmanzara iyron Vij (hozirgi Xiva o’rnidagi qadimgi manzilgoh nomi) edi. Men-Ahu Mazda – yaratgan ikkinchi sarzamin va go’zal yurt qudratli va pok diyori edi.

„Avesto”da dunyoning yaratilishi, insonning xalq bo’lib kamol topishi, ezguli uchun yovuz kuchlar bilan kurashi, erkinlik, ijodkorlik va bunyodkorlik yo’lidagi oruzlari o’z ifodasini topgan.

„Avesto” faqat odamninggina emas, balki bir hovuch tuproq, bir qultum suv, bir nafaslik havoning ham muqaddas ekanligi haqidagi kitob. „Avesto” yerning, daryolaru bog’lar, tog’laru buloqlar, ko’lu sahrolar, otu tuyalar uyuri, molu itlar, o’simligu giyohlar, shahar va manzilgohlarning bunyod etish tarixiga doir asar.

„Avesto” nasroniyni haqiqiy nasroniy, musulmonni haqiqiy musulmon etib tarbiyalaydigan kitob. U ko’rning ko’zini, karning qulog’ini ochadi, zanglagan ko’ngillarni iymon suvi ila yuvadi, umidsiz bandalarga abdiyat shamchirog’ini tutqazadi. Qisqasi, hayot va oxirat ma’nosini odamlarga tushuntiradi. Bundan tashqari, „Avesto”da mehnatga katta e’tibor beriladi. Yerga ishlov berish, dehqonchilik qilish ezgu amal sifatida ulug’lanadi.

Dangasalik va beparvolik esa qoralanadi. Bu esa qadimgi jamiyatda iqtisodiy hayot va ma'naviyat o'rtasida uzviy bog'liqlik bo'lganini ko'rsatadi. „Avesto“ning yana bir muhim jihati- unda ayollarga nisbatan hurmat mavjudligi. Oilaning mustahkamligi, farzand tarbiyasi, halollik kabi qadriyatlar yuqori hisoblanadi.

„Avesto“ni yanada chuqurroq o'rganishda uning tarixiy, falsafiy va madaniy qatlamlari nihoyatda boy ekanini ko'rish mumkin. Bu asar ming yillar davomida shakllanib, avval og'zaki ravishda saqlangan, keyinchalik yozma holga keltirilgan. Shu sababli u qadimgi inson tafakkurining uzoq evolyutsiyasini o'zida mujassam etadi. „Avesto“ faqat diniy bilimlar beribgina qolmasdan, dunyoviy bilimlarga ham ega kitob hisoblanadi. „Avesto“da qadimgi tabiblarning qasamyodi va tabobat ramzi ilon va jom berilgan.

Demak tabib qasamyodi va ramzi Gippokratdan emas, balki bizdan boshlangan. Bu ham bizning ma'naviyatimiz qadimiyligini ko'rsatuvchi dalillardan biri hisoblanadi. „Avesto“da ma'rifatni, ilm va hunarni egallash va uni boshqalarga o'rgatish kerakligi ham uqtirilgan. „Avesto“ kitobida ajdodlarimizning necha ming yillik ma'naviy me'rosi izlari o'z aksini topgan. Unda yovuzlik, johillik, zo'ravonlik, tuhmat kabi yomon illatlar qoralanadi. Sof ko'ngilli bo'lish, xiyonat qilmaslik, savdoda bir-birini aldamaslik, haoqrat qilamslik, mehnatsevarlik kabi ma'naviy fazilatlar targ'ib etiladi.

„Avesto“ nafaqat diniy, balki falsafiy va ma'naviy meros sifatida ham katta ahamiyatga ega bo'lib, u inson tafakkurining qadimiy ildizlarini o'rganishda bebaho manba hisoblanadi.

Undagi g'oyalar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, jamiyatni ezgulikka, adolatga va ongli hayot tarziga undaydi. O'z mazmuni, mohiyatiga ko'ra yakkaxudolik, insonparvarlik, mehr-shafqat, mehnatsevarlik, yurtparvarlik g'oyalarini tarannum etib, odamzod ahlini bunyodkorlik, yaratuvchilikka undagan muqaddas „Avesto“ olis tariximizning asl durdona asarlari sirasiga kiradi.

„Avesto“ ta'limoti bir tomondan, yerli qabila, elatlarni turli mahalliy ko'rinishdagi bid'at va xurofotlar ta'siridan xalos bo'lishiga, ikkinchidan, mahalliy etnoslarning chuqur ildiz otib, mustahkamlanib, etnik shakllanishiga va uchinchidan, ishlab chiqarish jarayonining tobora kengayib, ijtimoiy munosabatlarning takomillashuvi jarayoniga sezilarli turtki beradi. Buning ustiga, „Avesto“da zardushtiylikning umumbashariy ahamiyati va mohiyatidan tashqari unda o'lkamizda ilk boshqaruv tizimining amal qilganligi to'g'risida ham qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Mamlakatni idora qilgan shaxs „Kavi“ deb yuritilgan. Oqsoqollar kengashi - „varzanopoti“, „Xanjamana“, xalq yig'ilishi- v'yaxa deyilgan.

„Avesto“ avvalgi dinlarda rasm bo'lgan insonlarni qurbonlik qilishni qat'iy man etadi va ularning daxlsizligini himoya qiladi. Zardushtiylik dinida ta'kidlanadiki, odamzod yashashga haqli bo'lib, bu huquqdan uni mahrum qilishga hech kimning haqqi yo'q. Zardushtiylik dinida olov muqaddaslashtirilgan bo'lib, u insonning baxt-u saodati ramzi sifatida ulug'langan. Shu bois, ajdodlarimizning ko'plab to'y-tomoshalari, xursandchilik marosimlari olov yoqish, uning atrofida keng davra qurish bilan bog'liq bo'lgan holda o'tkazilgan. Bu odatlarning ba'zilari hozirgacha ham saqlanib qolgan. Shaharlar, aholi manzilgohlarining eng gavjum joylarida maxsus qurilgan otashkadalar bo'lib, ular doimo ziyoratchilar bilan to'la bo'lgan.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, doimiy farog'atli hayot inson uchun uzoq notanish hayoliy jannatda emas, balki insonlar yashaydigan shu tiriklik dunyosida bo'ladi. Bu maqsad, marraga yetish uchun esa odamlar juda ko'p murakkab va jiddiy sinovlardan o'tishlari lozimdir.

Shunday qilib, muqaddas „Avesto“ kitobi buyuk o'tmishdoshlarimizning keng qamrovli hayot tarzini, umrboqiy urf-odatlarini, ta'lim-tarbiyasi, boshqaruv tizimini o'rganishimizda muhim dasturilamal manba bo'lib xizmat qiladi. Unda umumbashariy g'oyalarning chuqur aks etganligi sababli, bu asar keng hududlar bo'ylab yoyilib, Sharq-u G'arbda e'tirof etilib, turli xalqlarning ma'naviy yuksalishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Rayhon Beruniy, (1968) Tanlangan asarlar
2. Solijon Hasanov, (1999) „Avesto“ - huquq manbai
3. Asqar Mahkam tarjimai, (2001) Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik
4. С.П.Толстов, (1964) Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab
5. Arxiv.uz